



# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 oktyabr holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **790 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi **1,1 f.p ko'paydi**
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **744 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-sentyabr oyida Viloyatda 1172 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 130 taga ko'paygan.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 56,3 % kamaygan hamda ularning soni 428 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 840 ta (8,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 10122 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Guliston shahrida (31,6 %), Sirdaryo (15,4%), Sayxunobod (8,7 %) va Yangiyer (7,4 %) tuman shaharlarida kuzatilmoqda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




## Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,  
2018 yilning 1 oktyabr holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>10860</b>	<b>100,0</b>	<b>10122</b>	<b>100,0</b>
Guliston shaxri	3398	31,2	3199	31,6
Sirdaryo tumani	1708	15,7	1562	15,4
Sayhunobod tumani	898	8,3	879	8,7
Yangiyer shaxri	812	7,5	750	7,4
Guliston tumani	821	7,6	742	7,3
Mirzaobod tumani	793	7,3	731	7,2
Boyout tumani	817	7,5	750	7,4
Xovos tumani	531	4,9	485	4,8
Oqoltin tumani	437	4,0	411	4,1
Sardoba tumani	398	3,7	381	3,8
Shirin shaxri	247	2,3	232	2,3


### Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 93,2 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 6,8 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,2 f.p. kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,6 % savdoda, 11,9 % sanoatda, 8,5 % qurilishda, 11,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 5,7 % tashish va saqlash, 1,8 % axborot va aloqa, 1,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




**Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**




2018 yil yanvar-sentyabr holatiga 1172 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 11,1 % ga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Guliston shaxrida (316 ta), Sirdaryo (178 ta), Sayhunobod (111 ta) va Yangiyer shahrida (98 ta) tashkil etilgan. Eng kam Shirin shaxrida (24 ta), Xovastda (60ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (273 ta), sanoatda (186 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (184 ta) va qurilishda (174 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (14 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (9 ta) va tashish va saqlashda (33 ta) tashkil etilgan.

### Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi savdoda (-0,5 f.p.), tashish va saqlashda (-0,4 f.p.), boshqa faoliyat turlarida (-0,4 f.p. ga), axborot va aloqada (-0,2 f.p.) kamayganligi, Natijada qurilishda (+0,9 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,2 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,3 f.p.) ulushining o'sishiga olib keldi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda**

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.10.2018 y.	01.10.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1,3	1,3	0,0
Savdo	25,9	26,4	-0,5
Axborot va aloqa	1,6	1,8	-0,2
Sanoat	11,9	11,9	0,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	12,0	11,7	0,3
Qurilish	9,3	8,4	0,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,5	5,3	0,2
Tashish va saqlash	5,4	5,8	-0,4
Boshqa turlari	27,1	27,5	-0,4

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).**

2018 yil 1 oktyabr holatiga 8132 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2728 ta, oilaviy korxonalar – 85 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 5006 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 24 tani va boshqalar 289 tani tashkil etadi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 oktyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 103 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 21 taga yoki 20,4 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 78 tasi qo'shma korxonalar, 25 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Sirdaryo tumani 48 ta (45,7 %i), Guliston shaxri 23 ta (21,9 %), Yangiyer shaxri 10 ta (9,5 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xovost tumani 1 ta (1,0 %), Sardoba tumani 2 ta (1,9 %), Guliston tumani 1 ta (1,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 oktyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 68 ta (66,0 %), savdoda 11 ta (10,6 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa 10 ta (9,7 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa qurilishda 5 ta (4,9 %), tashish va saqlashda 4 ta (3,9 %), boshqa tarmoqlar 4 ta (3,9 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta (1,0 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek tashkil etilmaganlar, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-sentyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 20 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7 taga kao'paygan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 13 ta, korxonalar yangi tashkil etilgan.



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 oktyabr holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 8087 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 oktyabr holatiga qaraganda 8,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2726 tasi (33,7 %) Guliston shahriga, 1308 tasi (16,2 %) Sirdaryo, 711 tasi (8,8 %) Sayxunobod tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 8087 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2612 tasi (32,3 %) – savdoda, 1190 tasi (14,7 %) - sanoatda, 936 tasi (11,6 %) - qurilishda, 1190 tasi (14,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 553 tasi (6,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 545 tasi (6,7 %) - tashish va saqlashda, 153 tasi (1,9 %) - axborot va aloqa sohasida, 82 tasi (1,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 826 tasi (10,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-sentyabr holatiga 1044 ta yaqin kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 5,7 foizga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahrida (265 ta), Sirdaryo (161 ta), Sayxunobod (108 ta) va Guliston tumanlarida (70 ta) tashkil etilgan. Eng kam Shirin shahrida (21 ta), Sardoba (53 ta) tumanida tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (273 ta), sanoatda (186 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (183 ta) va qurilishda (173 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (14 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (9 ta) hamda tashish va saqlashda (33 ta) tashkil etilgan.



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 oktyabr holatiga 91 tani tashkil etib, ulardan 85 tasi yoki 93,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **28,6** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 44,7 % yoki 38 tasi sanoat, 17,6 % yoki 15 tasi savdo, 20,0 % yoki 17 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 9,4 % yoki 8 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,2 % yoki 1 tasi axborot va aloqa hamda

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Viloyat statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi  
boshlig'i

Nashr uchun mas'ul: **K.Yusupov**  
(0367) 225-31-00

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat  
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida  
tayyorlangan